

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA O'QUVCHILARNI IRSIYAT VA KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamajonova Kamola Akramovna

Jizzax, 100130, O'zbekiston, kamola-akramovna@mail.ru,

ORCID:0000-0002-2772-1612

Har bir ota-ona farzandining kelgusida kim bo'lib yetishishi haqida o'ylaydi. Ba'zilar: "Ha, uning otasi olim, bolasi ham olim bo'ladi" yoki "Mana, qarab turasiz, onasi chevar, bu qizaloq onasiga tortadi", deyishadi. Xo'sh bu gaplar qanchalik to'g'ri?

Albatta, qobiliyat o'zi nima ekanligini bilmay turib, uning to'g'ri-noto'g'riligi haqida fikr yuritish qiyin. Buning uchun mazkur jarayon va hodisalar irsiyat bilan bog'liqmi, talant avloddan avlodga irsiy yo'l bilan o'tadimi? degan masalalarni hal qilib olmoq lozim.

Amaliy hunarmandchilik san'atida qobiliyatni avloddan avlodga o'tishi hususidagi ko'plab misollarga guvoh bo'lamiz. Masalan, Qo'qonlik Lutfulla Fozilov va Xivalik Madraim Otajonovlarning metallga gul o'yish san'ti avloddan avlodga o'tib kelgan. Jo'raqulovlar 300 yildan ortiq kulolchilik bilan shug'ullanishadi. Toshkentlik o'ymakor usta Toir To'xtaxo'jayev, musiqa asbobsozi Usmon Zufarov va shu kabi ustalar ham ota buvalari san'atini davom ettirishgan.

Kishida muayyan kreativ qobiliyatning shakllanishida tashqi muhit va irsiy munosabatlar ma'lum darajada rol o'ynashiga odamlar qadimdayoq e'tibor berishgan. Keyinchalik bir qancha tadqiqotchilar geniy (daho)larning kreativ qobiliyati borasida tuzgan sistema va sxemalarda ularning shajaralarini tasvirlashdi.

Bunday tadqiqotlar Motsart, Betxoven, Tolstoy, Pushkin, Leonardo da Vinchi, Eynshteyn va boshqalarning iste'dodi sabablarini oshkor etish uchun o'tkazilgandi. Masalan, mazkur sohada izlanish olib borgan N.K.Kolsov o'zining bir maqolasida "Geniyning asosiy irsiy kreativ qobiliyati ishbilarmonligi, ijodkorligi, jismonan sog'lomligi va chidamliligiga xos bo'lib, tarixdan uzoq davom etgan hayot uchun biologik kurash jarayonida tabiiy tanlanish "imtihon"idan o'tdi", deb yozadi. Kreativ qobiliyatning shakllanishida irsiy qobiliyatlarning ahamiyati haqida gapirar ekan, genetik (genetika-havon va o'simliklar irsiyoti, uning o'zgaruvchanligi haqida fan) olim ijtimoiy sharoitga katta ahamiyat beradi. "Kishi,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

- deydi u, - ijtimoiy organizm, demak, u ijtimoiy muhimsiz yashay olmaydi". XX-asrning 30-yilarida kreativ qobiliyat va daholik muammosi irsiyat va o'zgaruvchanlik jarayonlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi.

Klassik genetika fanining asoschisi G.Mendel bo'linish va mustaqil taqsimlanish kabi irsiy jarayon qonunlarining ta'siri va namayon bo'lishini ko'rsatib berdi. Darhaqiqat, birinchi avlodda ota-onadan naslga har bir jinsdan yarim-yarim gen va belgilar o'tadi. Keyingi avlodlarda mustaqil taqsimlanish jarayoni kechadi.

Molekulyar genetika taraqqiyoti faqat bo'linish hamda mustaqil taqsimlanish jarayonlarini yaxshi tasavvur etishgina emas, balki irsiy apparatning moddiy mexanizmlari, uning tarkibiy tuzilishi va vazifalarini oshkor etish imkonini ham beradi. Dominant (ustunlik qiluvchi) va retsessiv (ta'siri kamaygan) genlar nisbati genlarning yo'q bo'lib ketmasligini ko'rstadi. Zamonaviy molekulyar genetikaning rivojlanishi natijasida genning moddiy strukturasi aniqlash mumkin bo'ldi.

Eksperimental genetika sohasida ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. Hali ham olimlar ma'lum xususiyat va vazifalarga ega bo'lgan muayyan organizm turlarini yaratishda davom etmoqdalar. Biroq shunga qaramay, talantning irsiyligi haqidagi masala hal qilinishi u yoqda tursin, keskinlashdi.

Buning sababi o'z-o'zidan tushunarli: birgina biologiya va genetika sohasi mutaxassislarining o'zlarigina bu muammoni hal etisholmasdi, chunki talantning vujudga kelishi va shakllanishi nihoyatda murakkab jarayondir. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirga qadar mazkur jarayon xususida olimlar o'rtasida uzil-kesil muhim fikr yo'q ayrim olimlar talant asosida genetik omillar yotadi deyishsa, boshqa tadqiqotchilar esa bu jarayonda ijtimoiy omillar asosiy rol o'ynaydi, degan fikrni aytishmoqda. Bizningcha, bu muammoni ikkiyoqlama hal etish lozim. Birinchidan, mazkur muammo ijtimoiy va bioijtimoiy nisbatlar masalasini hal etish bilan uzviy bog'liqdir. Ikkinchidan, ushbu jarayonning hoh biologik, hoh ijtimoiy tomonini moslashtirish bunday munozarali mavzuni noto'g'ri hal etishga olib kelishini bilib olish lozim. Kreativ qobiliyat, iste'dod, talant, asosini murakkab ijtimoiy jarayonlar tashkil etadigan tushunchalardir. Binobarin, ijtimoiy taraqqiyotning har bir tarixiy bosqichiga aynan talant, geniy muvofiq keladi. Talant, geniyning kreativ qobiliyat ijtimoiy muhitni bunyod etmaydi, balki ijtimoiy muhit uning vujudga kelishiga imkon beradi.

Shu o'rinda o'z zamonasining yetuk olimi, juda ko'p tillarni bilgan faylasuf, matematik va tibbiyotchi olim sharqda "Muallimi avval" ("Birinch muallim")



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

unvonini olgan Arestoteldan keyin “Muallimi soni” (“Ikkinchi muallim”) degan nom olgan Abu Nasr Farobiyning aytgan fikrlari butun jahon xalqlari, jumladan Sharq va O‘rta Osiyo xalqlarining inson kamoloti haqidagi pedagogik nazariyasining yuzaga kelishi va rivojlanishidagi roli benihoya kattaligini alohida ta’kidlashga ehtiyoj seziladi. U inson qobiliyatining ahamiyatini “Inson hayotining oliy maqsadi ham baxt-saodatga erishuvdan iborat. Insonning baxtli bo‘lishi esa uning qobiliyati va irodasiga bog‘liq. Inson yuksak kasbiy kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilgandek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi” deya e’tirof etgan.

Farobiy tug‘ma g‘oyalar va daholik qobiliyatlarni tan olmaydi. Ammo tug‘ma fazilatlar fikriy fazilatga buysinishi kerak. Insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilati tug‘ma emas. “Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi”- deydi.

Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, “xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat ikki yo‘l: ya’ni ta’lim va tarbiya bilan amalga oshiriladi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”.

“Ta’lim – deya u so‘zini davom ettirib, - faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ... kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir”. Bu ishni ustozlar va murabbiylar bajaradilar, dedi.

Biroq mutlaqo kreativ qobiliyatsiz, iste’dodsiz (ruhiy va fiziologik jihtdan normal kishilar nazarda tutilyapti, albatta) va haddan tashqari kreativ qobiliyatli inson ham yo‘q. Har bir kishi muayyan qobiliyatga qulay ijtimoiy sharoitlar mavjudligidagina imkoniyatdan kreativ voqelikka aylanishi mumkin.

Kreativ qobiliyat muayyan genetik imkoniyatning ijtimoiy va tarixiy shroitlar bilan o‘zaro muqarrar va murakkab ta’siri orqligina vujudga keladi.

Bularning hammasi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq muhit va ta’lim tarbiya mahsuli bo‘lmish inson faoliyati mohiyatidan ajralmasdir. Uning me’yori-ijodkorlik mehnati samarasi bilan izohlanadi.

Mashhur olim G.Mendelning fikricha, muayyan kreativ qobiliyat “nishonalari” har bir kishida bor, biroq ularning rivojlanishi ijtimoiy ishlab



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

chiqarishning muayyan sharoitlarida tarkib topgan ijodkorlik mehnatiga bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Qobiliyatlarning ijtimoiy shakllanishi barqarorlik va o'zgaruvchanlik o'zaro ta'sirining juda murakkab jarayonidir. Bu jarayon mazkur muammoning genetik nuqtai nazaridan ajralmasdir. Ushbu muammoni hal etish dialektikasi mazkur jarayonda ijtimoiy va genetik hodisalarning dialektik o'zaro ta'sirini e'tiro etishni talab qiladi. Bunday o'zar ta'sir barqarorlik va o'zgaruvchanlik imkoniyat va voqelik jarayonlarining o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Ijtimoiy omil muayyan kreativ qobiliyat nasliy "nishonalari" ning shakllanishi hamda namoyon bo'lishi uchun zarur va asosiy sharoit hisoblanadi. Imkoniyat tarzidagi irsiy "nishonalar" faqat ijtimoiy omillar orqaligina voqeylikka aylanishi mumkin.

Erishilgan ilmiy muvaffaqiyatlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, genetik jihatdan hech qanday sof farq mavjud emas. Ruhiyat, illyuziya, kechinmalar va tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari allaqanday alohida "genetik madaniyatga" emas, balki ma'lum xalqning, ilm-fani rivojlanishiga, uning ijtimoiy va tarixiy, moddiy va ma'naviy ta'lim-tarbiya berish sharoitlariga bog'liq.

Shunday qilib, kreativ qobiliyat nasldan-naslga o'tmaydi, balki u ijtimoiy muhit uni rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya orqaligina vujudga keladi, u yoki bu qobiliyatning nishonalarigina nasldan-naslga o'tishi mumkin. Aytilganlar o'quvchi-yoshlarni kasb-hunar tanlashiga oid qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga ham bevosita taalluqlidir.

### Foydlanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoynazarov T.A. Sharq allomalarining e'shlarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi mulohazalarining bugungi kundagi o'rni. "Maktab va hayot" jurnali. 2004yil., №2-son.
2. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psix. fan. nomz... diss. avtoref. –T.: 2002. – 22 b.
3. Abdullayeva Q.M. Kasbiy fanlar orqali talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. //J. Pedagogik ta'lim, 2004. -№6. –B.38-40.

